

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Y.Q.Qayumova, X.M.Komilova	
Turkiston Qum balig'i Gobio lepidolaemus (K.Kessler1872)ning morfometrik xususiyatlarining qiyosiy tahliliga oid	103
U.I.Obidjanov	
Biologiya o'qitish metodikasidan laboratoriya ishlarini takomillashtirishning ayrim masalalari.....	108
E.X.Najmiddinov, M.A.Muxammadiyev	
Baliqlarning gelmintoz kasalliklariga qarshi antigelmint preparatlarni qo'lash usullari	112
M.M.Mirzaxalilov	
Shahrixonsoyda tarqalgan Kushakevich yalangbalig'ining (Iskandaria kuschakewitschi) ba'zi morfobiologik ko'rsatkichlari	115
N.B.Ikramov	
Shimoliy Farg'onan kanali algoflora taksonlarining mavsumiy dinamikasi	119

GEOGRAFIYA

M.H.Otamirzayeva	
Daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari	126
O.I.Abdug'aniev, D.B.Kosimov	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash usullari.....	133
M.R. Atabayeva	
O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursida "Ichki suvlari va suv boyliklari" mavzusini interfaol o'rganishda klaster usulidan foydalanishning ahamiyati	139
O.I.Abdug'aniev, T.D.Komilova	
Tabiat xilma-xilligi: nazariy asoslari, yondashuvlar va o'rganish usullari	144
P.R.Qurbanov	
O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishining asosiy bosqichlari	150

ILMIY AXBOROT

Q.B.Baratov	
Bo'lajak o'qituvchilarini uzliksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari.....	158
A.N.Qosimov	
O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik mazmuni	166
J.V.Solijonov	
Bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkur rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	172
A.Aloxunov	
Arxeologik tadqiqot usullari xususida	175
I.Aldashev	
O'quv jarayoniga media ta'limning integratsiyasi	182
I.R.Asqarov, G.A.Mo'minova	
Dalachoy tarkibidagi vitaminlar miqdorini aniqlash va ularning organizmga ta'siri	188
F.O.Toshboltayev	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida rivojlantirish modeli	194
A.N.Meliboyev	
Inson oliy qadriyat tamoyili asosida jamiyatda kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlarining kelgusidagi vazifalari	199
I.A.Suvanov	
Global o'zgarishlar jarayonida AQShning mafkuraviy taraqqiyot yo'li va uning o'ziga xosligi	205
G.R.Mamadalieva	
Ingliz va o'zbek tillarida "foot/oyoq" kontseptining nominativ maydoni	211
M.O.Habibullaev	
Korruptsiyanı vujudga keltiruvchi ijtimoiy omillari va unga qarshi kurashning mexanizmlari.....	219
F.T.Raximova, S.S.Usmanova	
Minimal matnlarning kognitiv tahlili	222

**BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI
PEDAGOGIK VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI ASOSIDA
RIVOJLANTIRISH MODELI**

**МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ
ИНФОРМАТИКИ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ИНФОРМАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ**

**MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF THE METHODOLOGICAL PREPARATION OF
COMPUTER SCIENCE TEACHERS BASED ON THE INTEGRATION OF PEDAGOGICAL AND
INFORMATION TECHNOLOGIES**

Toshboltayev Faxriddin O'rino boyevich¹

¹Toshboltayev Faxriddin O'rino boyevich

– Farg'ona davlat universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak informatika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida rivojlantrish modelining hamma jihatlarini qamrab oluvchi muammoni tahlil qilish va rejalashtirish, muammoni yechimini baholash faoliyatni tashkil qilish metodlarini o'z tarkibiga oladigan kompleks integrativ jarayon va bo'lajak o'qituvchilarni metodik tayyorgarligini pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida rivojlantrish modeli tuzish va bu orqali integrativ bilimlarni kasbiy-pedagogik tayyorlangan kompetentli informatika o'qituvchisini tayyorlash va uning mavjud holatlari tadqiq etilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается комплексный интегративный процесс, включающий методы анализа и планирования проблем, оценки решения проблемы, а также разработки методической подготовки будущих учителей на основе интеграции педагогических и информационных технологий создания модели и обучения. профессионально и педагогически подготовленного компетентного учителя информатики на основе интегративного знания и его существующих условий.

Abstract

In this article, a complex integrative process that includes the methods of problem analysis and planning, evaluation of the solution to the problem, and the development of methodological training of future teachers based on the integration of pedagogical and information technologies creation of the model and training of a professional and pedagogically prepared competent informatics teacher on the basis of integrative knowledge and its existing conditions were researched.

Kalit so'zlar: pedagog, metodika, integratsiya, sinxron usul, axborot texnologiyalari, pedagogik mahorat, variativ, reproduktiv.

Ключевые слова: педагог, методика, интеграция, синхронный метод, информационные технологии, педагогическое мастерство, вариативность, воспроизведение.

Key words: pedagogue, methodology, integration, synchronous method, information technologies, pedagogical skills, variation, reproduction.

KIRISH

Bugungi kunda oliy pedagogik ta'limgiz tizimi oldiga innovatsion metodik tayyorgarlikka ega o'qituvchilarni tayyorlash vazifasi qo'yildi. Chunki, o'qituvchi o'quvchilarning psixologik-fiziologik o'ziga xosliklarini hisobga olish, shakllantirish va rivojlantrish tajribacini egallashi lozim. Ma'lumki, bo'lajak o'qituvchining ta'limgiz jarayonidagi metodik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish ustuvor o'rinni egallaydi. Buning uchun o'qituvchilardan zamонавиј талабларга javob berадиган, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyat, chuqur bilim va ilmiy dunyoqarash, puxta metodik tayyorgarlikka ega shaxs bo'lish talab etiladi. Ta'limgizning faoliyatli, guruhli, o'yinli, obrazli, amaliy-yo'nalishli, muammoli va boshqa shakl va uslublari zarur. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini mazkur yo'nalishlar va uslublari asosida rivojlantrish, uni axborot texnologiyalari bilish integratsiyalash zamонавиј та'limgiz muhitida o'quvchini qiziqtirish, unga kerakli bilim va ko'nikmalarni berish imkoniyatini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Pedagog olim B.X.Raximov o'z tадqiqotlarida: "Avvalo, o'qituvchi o'quvchilar oldiga muammo qо'yadi va uning ta'rifini aytib o'tadi, o'quvchilar esa muammoni yechish uchun yo'l-yo'riq qidiradilar. So'ngra o'qituvchi o'quvchilar oldiga muammoni mustaqil ta'riflash vazifasini qо'yadi-da, uni yechishga o'zi yo'llanma beradi. Shundan so'ng esa o'qituvchi muammoga ishora qilmaydi, balki o'quvchilarni mustaqil tahlil qilib chiqish, undan so'ng ta'riflash, yechish usullari va imkoniyatlarini qidirib topishga о'rgatadi" [1] -deydi.

Pedagog olma M.X.Baybayeva o'zining tadqiqotlarida mustaqil ishning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadi: bilim manbalari va o'qituvchi nazorati turiga ko'ra mustaqil ish; o'quv jarayonining tarkibiy qismlariga ko'ra mustaqil ish; mustaqillik darajasi va akmeologik yondashuvga ko'ra mustaqil ish; bilish faoliyatining xususiyatiga (reproduktiv yoki ijodiy) ko'ra mustaqil ish [2]. Tadqiqotchi olim I.Rozinaning ta'kidlashicha, informatika "ta'lmini internetlashtirish" ta'lum jarayonida Web 2.0/3.0 xizmatlarining qo'llanilishidir [3]. Web 2.0/3.0 xizmatlarining rang-barangligi informatika ta'lmini mazkur texnologiyalar vositasida reallashtirishning ko'p sonli variantlaridan birini tanlash imkoniyatini taqdim qiladi. Shu tariqa bugungi kunda tarmoq pedagogik hamjamaliyatlarning shakllanishi nihoyatda dolzarb bo'lib bormoqda. Ta'lum jarayonida Web-texnologiyalardan foydalanish bo'yicha YE.Patarakin [4], M.Nimatulayev [5], T.Vezirov [6]larning ishlarida bir qator tasniflar berilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy tadqiqot olib borish va amaliy pedagogik tajribadan kelib chiqib, elektron ta'lum muhitida bo'lajak informatika o'qituvchilarini integrativ yondashuv asosida tayyorlash metodikasini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi. Modelning maqsadni aniqlash blokida ijtimoiy talabga mos raqobatbardosh informatika o'qituvchilarini tayyorlash maqsadi qо'yilib, maqsaddan kelib chiqib vazifalar belgilab olindi.

Tashkiliy blokda o'qituvchi tomonidan elektron ta'lum muhitini masofali va masofali bo'limgan shakllarda tashkil etish uchun o'quv materiallarini tayyorlab qо'yish, masofali shaklda biror ta'limi platforma (Moodle, Coursera va boshq.)lardan, sinxron usulda Zoom, BigBlueButton, Webinar va boshqa web saytlardan foydalanish, masofali bo'limganda elektron ta'lum resurslari (Macromedia Flash 8, AutoPlay Media Studio 8, Movavi Video Editor Plus, Bandicam, Audacity, Turbo Sayt, Ispring, Hote Potatoe va boshq.) va integrativ yondashuvdan foydalanish uchun har bir pedagogik jarayonda integratsiyani ifodalovchi o'quv-metodik materiallarini mavjudligi, undan foydalanishni rejalashtirish yo'lga qо'yildi.

Pedagogik faoliyat blokida pedagogik jarayon elektron ta'lum muhiti (LMS, Moodle, CLMS, LP va boshq.) tashkil etilishi, o'qituvchi talabalar bilan cinxron (Zoom, BigBlueButton, Webinar, Chat, elektron pochta va boshqalar orqali) aloqada bo'lishi, buning natijasida sifatli oliy ta'lum amalga oshirilishi, unda asosiy e'tibor bo'lajak o'qituvchilarining kelgusi pedagogik faoliyatida informatikani o'qitishda integrativ yondashuvdan foydalanishi, integrativ bilimlarni tahlil etish va undan foydalanish metodikasini o'rganib olishi natijasida elektron ta'lum muhitida o'qituvchi tayyorlash metodikasini takomillashtirishga, bo'lajak o'qituvchida integrativlik, metapredmetilik, loyihalash, tadqiqotchilik, innovatsion kompetensiyasini takomillashtirishga erishiladi.

Natijaviy blokda yuqorida maqsad vazifadan kelib chiqib, ta'lum-tarbiyani tashkil etish va pedagogik faoliyat blokida olib borilgan ishlar natijasi sarhisob qilinadi. Unda bo'lajak informatika o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorgarligi mobillik (maxsus kasbiy kompetent), qisman izlanuvchi (tayanch kasbiy kompetent), variativ (boshlang'ich kasbiy kompetent), reproduktiv (kompetent emas) yoki oliy, o'rta, quyi, past darajalarda ekanligi aks etadi va nihoyat, elektron ta'lum muhitidan foydalanuvchi, integrativ bilimlar asosida kasbiy-pedagogik tayyorlangan kompetentli informatika o'qituvchisini tayyorlashga erishishimizga olib keladi. Loyihalash bosqichlarining tayyorgarlik (dars maqsadi, mazmuni, shakli, metodi, vositalari va nazorat usulini aniqlash), loyihani tayyorlash (dars ishlanma va texnologik xarita tayyorlash), loyihani bajarish, amalga oshirish (darsni olib borish), yakunlovchi (talabalarni rag'batlantirish), xulosa va tavsiyalar berish (o'z faoliyati, yutuq va kamchiligini aniqlash, korreksiyalash) bosqichlarida bo'lajak informatika o'qituvchilarining faoliyatlarini nimalardan tashkil topishi, ularni talabalarga uqtirish yo'llariga e'tibor qaratildi.



2.2-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida rivojlantirish modeli

Elektron ta'lif muhitida bo'lajak informatika o'qituvchisi innovatsion faoliyatni amalga oshirishi uchun: vaqt o'tishi bilan g'oya va fikrlarning xilma-xilligi va o'zgarib turishi hisobga olishga, yangiliklarni tezda qabul qilib (perseptiv qobiliyat), uni amaliyotda qo'llay olish, kreativlikni rivojlantirib borish, o'zini-o'zi tahlil qilish va obyektiv baholash(refleksiflik), yuz beradigan qaramaqshilikni adolatli bartaraf etish(bag'rikenglik), o'z emotsional holatini boshqarish (rahbar, o'quvchi, ota-onalarga nisbatan), samimiylilik, boshqalarga hamdardlik (empatiya), yangilikni amalga oshirib, o'z xulosa va qarorlariga ega bo'lishni shakllantirish asoslandi.

Bo'lajak informatika o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini oshirishda ulardagi "Axborot bilan ishslash kompetensiyasi"ni rivojlantirish va bu orqali axborot texnologiyasi integratsyaisini ta'minlash, axborotdan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish; media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishslash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish; ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiyalarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish; kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish kompetensiyalari ta'lif muassasasidagi axborotlashgan muhit ta'lif jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirishda ta'limni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan metodlar va usullarning xususiyatlari, qo'llash joiz bo'lgan holatlar to'g'risidagi nazariy bilimlarini oshirish, ularning pedagogik mahoratini oshirish va texnik tayyorgarligini takomillashtirishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan o'z o'rnila foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish kerak bo'ladi.

Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik va axborot texnologiyalari vositasida metodik tayyorgarligini rivojlantirish tizimining asosiy maqsadi o'quvchilarda fikrlashni rivojlantirish, ularda fikrlash faoliyati uslublarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, u quyidagi maqsadlarga erishishga qaratiladi:

Axborot, axborot jarayonlari, tizimlar, texnologiyalar va modellar bo'yicha ilmiy g'oyalar asosini tashkil etuvchi bilimlarni o'zlashtirish;

Kompyuter va boshqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda turli xil axborot vositalari bilan ishslash qobiliyatlarini o'zlashtirish, ilmiy faoliyatini tashkil etish va natijalarini rejalashtirish;

Axborotlarni tarqatishning huquqiy va axloqiy jihatlarini hisobga olgan holda axborotga mas'ul munosabatda bo'lish; qabul qilingan ilmiy ma'lumotlarga tanlangan munosabat.

Axborot texnologiyalaridan pedagogik faoliyatda foydalanishning afzalliklari:

1. Pedagogik faoliyatni jadallashtirish, individuallashtirish;
2. Internetdan foydalananayotganda axborot oqimlarini kengaytirish.

3. Pedagogik faoliyatni kompyuter va internet ma'lumotlari bilan birlashtirish, dars mashg'ulotlarini bir qismini axborot texnologiyalari yordamida o'tkazishga imkon beradi, bu esa pedagogik jarayonni yanada qiziqarli, xilma-xil va intensiv bajarishga imkoniyat yaratadi.

4. Axborot texnologiyalari(kompyuter) imkoniyatlaridan foydalanish o'qituvchiga qisqa muddatda barcha o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan materiallarni o'rganish darajasini aniq ko'rsatish va uni o'z vaqtida tuzatishga imkon beradi. Shu bilan birga, muayyan vazifaning qiyinchilik darajasini aniqlash mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Рахимов Б.Х. Креативные механизмы в процессе формирования элитарности человека. Сб.статьей/Под общей редакцией О.В.Красновой и Б.В. Кайгородова.-М.: Издательство Московского психолого-социального института, 2008. –С.255-259.
2. Байбаева М.Х. Касб-хунар коллежи ўкувчиларининг мустақил ишларини ташкил этишда педагогик технологиялардан фойдаланиш методикаси: Педагогика фанлари номзоди. ... дисс.Автореф. – Тошкент., 2012. – Б. 9.
3. Розина И. Н.. Теория и практика обучения педагогической коммуникации в образовательной информационно-коммуникационной среде: автореф.дис. ... док.пед.наук: – М., 2005. – 50 с.
4. Патаракин Е.Д. Социальные сервисы Веб 2.0 в помощь учителю // Учебно-методическое пособие. ☐М.: 2007. ☐64 с.
5. Ниматулаев М.М. Подготовка учителей информатики в педвузе к использованию web-технологий в профессиональной деятельности: дисс. ...канд.пед.наук.: – М., 2002. – 182 с.

6. Везиров Т.Т. Формирование профессиональных умений будущих учителей математики и информатики на основе Web-технологий: дисс.... канд.пед.наук. – Пермь, 2014. – 194 с.
7. Fakhriddin Urinboevich Toshboltaev. (2021). Improving the methodological system of training teachers on the basis of integration of pedagogical and information technologies. Current research journal of pedagogics 2(6): 96-100, June 2021.
8. Fakhriddin Urinboevich Toshboltaev. (2021). The necessity to ensure integration of pedagogical and information technologies in the preparation of future teachers. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS). Vol. 2 No. 6, June 2021 103-106.
9. Тошболтаев Фахриддин Ўринбоевич. (2022) Бўлажак ўқитувчиларда методик тайёргарликни ривожлантиришнинг ижтимоий-педагогик зарурати. Science and innovation international scientific journal 539-546.
10. Тошболтаев Фахриддин Ўринбоевич (2022) Бўлажак ўқитувчиларни методик тайёргарлигини ривожлантириш ижтимоий-педагогик зарурати. KASB-HUNAR TA'LIMI Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal 2022-yil, 3-son 118-121.
11. Тошболтаев Фахриддин Ўринбоевич (2022) Олий педагогик таълимда педагогик ва ахборот технологиялари интеграциясини таъминлаш мазмуни. Ta'lim, fan va innovatsiya 6-son, 2022-yil 41-44.
12. Тошболтаев Фахриддин Ўринбоевич (2022) Бўлажак ўқитувчиларни методик тайёрлаш тизимини такомиллаштиришнинг хусусиятлари. Муаллим сөйм узликсиз Билимлениди № 6/2 - 2022 жыл 75-78.
13. Tashboltaev Fahriddin (2022) Content of ensuring the integration of pedagogical and information technologies in higher pedagogical education. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching 193-196.
14. Fahriddin Orinboyevich Tashboltaev (2022) Features of improving the methodical training system of future teachers. Journal of Pedagogical Inventions and Practices 28-12-2022 113-115.
15. Ismoilova Dilrabo Sidikjonovna. Toshboltayev Faxriddin O'rınboyevich (2022) Axborot Texnologiyalarini O'qitish Tizimiga Integratsiyalash. Impact Factor: 9.2 ISSN-L: 2544-980X Vol. 29 (2022): Miasto Przyszlosci 283-285